

Abduvaxidov Dilshod Narbotirovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Samarqand kampusi ass.o'qituvchi
norbotirovich@mail.ru

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIYLAR MEROSINING TARIXIY-MADANIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur va u asos solgan Boburiylar sulolasining tarixiy, siyosiy hamda madaniy merosi ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Bobur shaxsining davlatchilik faoliyati, uning adabiy-tarixiy merosi, xususan "Boburnoma" asarining manbashunoslik ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Boburiylar imperiyasining boshqaruv tizimi, diniy bag'rikenglik siyosati hamda madaniyatlararo integratsiya jarayonidagi o'rni baholanadi. Maqolada Bobur va Boburiylar merosining Markaziy Osiyo hamda Janubiy Osiyo sivilizatsiyalarini o'zaro bog'lovchi tarixiy hodisa sifatidagi ahamiyati ilmiy xulosalar asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari tarixshunoslik, madaniyatshunoslik va sivilizatsion tadqiqotlar uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Bobur, Boburiylar imperiyasi, "Boburnoma", diniy bag'rikenglik, siyosiy meros, madaniy integratsiya, sivilizatsiyalararo aloqalar.

HISTORICAL AND CULTURAL SIGNIFICANCE OF THE HERITAGE OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR AND THE BABURIDS

Annotation. This article analyzes the historical, political and cultural heritage of Zahiriddin Muhammad Babur and the Babur dynasty he founded based on scientific sources. The study highlights the statehood activities of Babur, his literary and historical heritage, in particular the source-scientific significance of the work "Baburnama". It also assesses the governance system of the Babur Empire, the policy of religious tolerance, and its role in the process of intercultural integration. The article reveals the significance of Babur and the Babur legacy as a historical event connecting the civilizations of Central Asia and South Asia based on scientific conclusions. The results of the study serve as an important scientific source for historical, cultural and civilizational studies.

Keywords: Babur, Babur Empire, "Baburnama", religious tolerance, political heritage, cultural integration, inter-civilizational relations.

ИСТОРИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАСЛЕДИЯ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА И БАБУРИДОВ

Аннотация. В данной статье на основе научных источников анализируется историческое, политическое и культурное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и основанной им династии Бабуридов. Исследование освещает государственную деятельность Бабура, его литературное и историческое наследие, в частности, научно-источниковое значение произведения "Бабурнама". Также оценивается система управления империи Бабура, политика религиозной терпимости и её роль в процессе межкультурной интеграции. На основе научных выводов в статье раскрывается значение Бабура и его наследия как исторического события, связывающего цивилизации Центральной и Южной Азии. Результаты исследования служат важным научным источником для историко-культурных и цивилизационных исследований.

Ключевые слова: Бабура, империя Бабура, "Бабурнама", религиозная терпимость, политическое наследие, культурная интеграция, межкультурные отношения.

Jahon tarixiy taraqqiyotida ayrim shaxslar va sulolalar mavjud bo'lib, ularning siyosiy faoliyati va madaniy merosi muayyan hudud bilan chegaralanib qolmay, keng sivilizatsion makonga ta'sir ko'rsatgan. Ana shunday tarixiy shaxslardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) bo'lib, u Markaziy Osiyoda shakllangan temuriylar davlatchilik an'alarini Janubiy Osiyo hududlariga olib chiqdi hamda Hindiston tarixida yangi siyosiy va madaniy davrni boshlab berdi. Bobur asos solgan Boburiylar imperiyasi uch asrdan ortiq vaqt davomida Hindiston yarimorolida hukmronlik qilib, mintqa taraqqiyotiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsining tarixiy ahamiyati uning ko'p qirrali faoliyatida namoyon bo'ladi. U nafaqat yirik sarkarda va davlat arbobi, balki etuk adib, tarixchi va mutafakkir sifatida ham o'z davrining intellektual muhitini boyitdi. Ayniqsa, Boburning "Boburnoma" asari Sharq tarixnavisligida noyob hodisa bo'lib, unda XV–XVI asrlar Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonning siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy hayoti realistik yondashuv asosida aks ettirilgan.

Boburiylar sulolasi tomonidan yaratilgan siyosiy va madaniy tizim Hindiston tarixida markazlashgan davlat boshqaruvining shakllanishiga xizmat qildi. Ayniqsa, Akbarshoh davrida amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar, soliq va er munosabatlarining tartibga solinishi hamda diniy bag'rikenglik siyosati imperiyaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minladi. Bu tajriba Boburiylar davlatini ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatni boshqarishning muvaffaqiyatli modeli sifatida namoyon etdi. Zamonaviy tarixshunoslikda Bobur va Boburiylar merosini o'rganish nafaqat mintaqaviy tarix nuqtayi nazaridan, balki sivilizatsiyalararo aloqalar, madaniy integratsiya va davlat boshqaruvi tajribasini tahlil qilish jihatidan ham dolzarb hisoblanadi. Globallashuv sharoitida turli madaniyat va sivilizatsiyalar o'rtasidagi tarixiy muloqot masalalariga bo'lgan qiziqishning ortib borishi Boburiylar merosini qayta ilmiy baholash zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqot ishining asosiy maqsadi Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasi tomonidan yaratilgan merosning tarixiy, madaniy va sivilizatsion ahamiyatini ilmiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida Bobur shaxsining tarixiy o'rni, uning adabiy merosi, Boburiylar davlatchilik tajribasi hamda mazkur merosning bugungi tarixshunoslikdagi ahamiyati aniqlab beriladi.

Mazkur tadqiqot ishi tarix faniga xos kompleks metodologik yondashuv asosida olib borildi. Maqolada Bobur va Boburiylar merosining tarixiy-madaniy ahamiyatini har tomonlama yoritish maqsadida an'anaviy va zamonaviy ilmiy metodlar uyg'unlashtirildi.

Avvalo, tarixiylik va izchillik prinsipi asos qilib olindi. Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsining shakllanishi, uning siyosiy faoliyati hamda Boburiylar imperiyasining vujudga kelishi XV–XVI asrlar tarixiy voqeliklari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Hodisalarning sabab-oqibat munosabatlari ochib berildi. Shuningdek, tadqiqotda manbashunoslik metodi ham muhim o'rin tutdi. Asosiy birlamchi manba sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari tahlil qilindi. Manbalar tanqidiy yondashuv asosida baholanib, ularning ishonchliligi va tarixiy ahamiyati solishtirildi. Qiyosiy-tarixiy metod yondashuvi orqali Boburiylar davlatchiligining o'ziga xos jihatlari va umumiy sharqona boshqaruv an'alari doirasidagi o'rnini aniqlash imkonini berdi. Va albatta ushbu ilmiy tadqiqot ishida sivilizatsion yondashuv metodi ham qo'llanildi. Ushbu metod orqali Boburiylar merosining mintaqaviy va global sivilizatsiya taraqqiyotiga ta'siri, Sharq va G'arb madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar, madaniy sintez jarayonlari tahlil qilindi. Boburiylar davrida yuzaga kelgan madaniy uyg'unlik tarixiy jarayon sifatida baholandi. Yakunda esa tadqiqot jarayonida tizimli-tahliliy metoddan ham foydalanildi. Bunda Bobur va Boburiylar merosi siyosiy, madaniy, adabiy va me'moriy omillar majmui sifatida ko'rib chiqildi. Umuman olganda, yuqoridagi mazkur metodologik yondashuvlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi, xolisligi va ishonchliligini ta'minlab, maqolada ilgari surilgan xulosalarning daliliy poydevorini mustahkamladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur – jahon tarixida ko'p qirrali faoliyati bilan ajralib turadigan noyob tarixiy shaxsdir. U Amir Temur asos solgan temuriylar davlatchilik an'alarining so'nggi yirik namoyandalardan biri bo'lib, ushbu an'alarni yangi tarixiy-madaniy makon — Hindiston hududida davom ettirishga muvaffaq bo'ldi. Bobur shaxsining tarixiy ahamiyati, avvalo, uning siyosiy tafakkuri, harbiy strategiyasi va madaniy-intellektual qarashlarining uyg'unligida

namoyon bo'ladi. Bobur yoshligidan murakkab siyosiy muhitda shakllandi. Movarounnahrda Shayboniylar bosimi kuchaygan bir davrda u bir necha bor siyosiy mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, bu holat Bobur shaxsining irodaviy mustahkamligi va strategik moslashuvchanligini yanada kuchaytirdi. Tarixchi J.F. Richards ta'kidlaganidek, Bobur "mag'lubiyatni vaqtinchalik holat deb qabul qilgan va siyosiy imkoniyatlarni uzoq istiqbol nuqtayi nazaridan baholagan hukmdor" edi [1]. Aynan mana shu yondashuv uni Markaziy Osiyodan Hindistonga yo'naltirilgan yangi geosiyosiy strategiyani ishlab chiqishga undadi. 1526-yilda Panipat jangida Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo'diy ustidan qozongan g'alabasi Hindiston tarixida tub burilish yasadi. Bu g'alaba nafaqat yangi sulolaning vujudga kelishiga, balki harbiy san'atda zamonaviy taktika — artilleriya va markazlashgan qo'shin tuzilmasining keng qo'llanilishiga yo'l ochdi. Tadqiqotchi olim V.A. Smith Boburni "Hindistonda zamonaviy harbiy tizim asoschisi" sifatida baholab, uning harbiy yondashuvi mahalliy an'anaviy urush uslublaridan tubdan farq qilganini alohida qayd etgan [2].

Bobur shaxsining tarixiy ahamiyatini belgilovchi muhim jihatlardan biri — uning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlaridir. U zabt etilgan hududlarni faqat harbiy kuch bilan emas, balki adolatli boshqaruv, tartib va ijtimoiy muvozanat asosida mustahkamlash zarurligini chuqur anglagan. Bu qarashlar Boburning shaxsiy xotiralari — "Boburnoma" asarida yaqqol aks etadi. Jumladan, u shunday yozadi: "Podshohlik faqat lashkar bilan emas, balki el roziligi va adolat bilan mustahkam bo'lur" [3]. Mazkur iqtibos Boburning siyosiy tafakkuri feodal hukmdorlarga xos bo'lgan tor manfaatlardan ko'ra kengroq, xalqparvarlik ruhida shakllanganini ko'rsatadi. Boburning tarixiy ahamiyati uning adabiy va tarixnavislik faoliyati bilan yanada mustahkamlanadi. Ya'ni "Boburnoma" asari Sharq tarixshunosligida noyob manba bo'lib, unda muallif tarixiy voqealarni ideallashtirmasdan, realistik va tanqidiy ruhda bayon qiladi. Akademik V.V. Bartold Bobur shaxsini quyidagicha ta'riflaydi: "Bobur Sharq hukmdorlari orasida o'z hayoti va zamonasini eng xolis va haqqoniy tasvirlab bergan tarixiy shaxsdir" [4]. Shuningdek, Bobur shaxsida madaniyatlararo vositachi rolini ham ko'rish mumkin. U Markaziy Osiyo madaniy an'analarni Hindiston muhitiga olib kirib, keyinchalik Boburiylar davrida shakllangan sintez madaniyat uchun poydevor yaratdi. Bu holat Bobur shaxsini faqat siyosiy arbob emas, balki sivilizatsion jarayonlarning faol subyekti sifatida baholash imkonini beradi. Umuman olganda, Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsining tarixiy ahamiyati uning harbiy muvaffaqiyatlari bilangina emas, balki davlatchilik tafakkuri, tarixiy xotiraga bo'lgan munosabati va madaniy qarashlari bilan belgilanadi. Aynan shu jihatlar Boburni Markaziy va Janubiy Osiyo tarixini bog'lovchi buyuk tarixiy shaxs darajasiga ko'taradi deb be'malol aytish mumkin.

Bobur xatto alifbo masalalari bilan ham shugullangan. Bobur turk tillari tizimida so'zlashuvchi xalqlar orasida arab alifbosini boshqa, isloh qilingan (bu so'zning to'la ma'nosida), osonlashtirilgan alifbo bilan almashtirish ma'qul ekanligi masalasini amaliy ravishda birinchi bo'lib taklif qildi va bu yangi alifboning konkret loyihasini uning o'zi ishlab chiqdi. Chindan ham Boburning o'zi tomonidan «Xatti Bobiriy» deb atalgan bu alifbo nihoyatda murakkab, o'zbek tili xususiyatlariga mos kelmaydigan, qiyin arab alifbosidan ko'p hollarda tubdan farq qilar edi. Boburning mazkur alifbosi arab alifbosiga nisbatan sodda va qulay bo'lganligini, masalan, uning hech qanday nuqtalari (ostkisi ham, ustkisi ham) bo'lmasligiyoq ko'rsatib turadi [8]. Bu, shubhasiz, Boburning eng katta xizmatlaridan biri hisoblanadi.

Boburiylar imperiyasi XVI–XVIII asrlarda Hindiston yarimorolida shakllangan eng qudratli va barqaror siyosiy tuzilmalardan biri bo'lib, uning siyosiy merosi mintaqa tarixida chuqur iz qoldirdi. Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan asos solingan bu imperiya keyingi hukmdorlar davrida markazlashgan boshqaruv tizimi, mukammal ma'muriy apparat va nisbatan barqaror huquqiy munosabatlar asosida rivojlandi. Boburiylar siyosiy merosining ahamiyati, avvalo, davlat boshqaruvi, ma'muriy islohotlar va ko'p millatli jamiyatni idora etish tajribasida namoyon bo'ladi. Imperiyadagi siyosiy hokimiyat markazlashuvi Humoyun va ayniqsa Akbarshoh davrida aniq shakllandi. Akbarshoh (1556–1605) tomonidan amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar davlatni boshqarishda qat'iy tizimlilikni ta'minladi. Bu holat esa imperiyaning uzoq muddat davomida barqaror faoliyat yuritishiga imkon berdi.

Boburiylar siyosiy merosining yana bir muhim jihatlaridan biri — er va soliq tizimining isloh qilinishidir. Akbarshoh davrida joriy etilgan er tizimlari hududlardagi tuproq unumdorligi va hosildorlikni hisobga olgan holda soliq undirishni yoʻlga qoʻydi. Bu tizim davlat daromadlarini barqarorlashtirish bilan birga, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini ragʻbatlantirdi. Tarixchi V.A. Smithning qayd etishicha, Akbarning moliyaviy siyosati esa “imperiyaning iqtisodiy jihatdan mustahkamlagan eng muhim omillardan biri” boʻlgan [2].

Boburiylar imperiyasining diniy siyosat masalasida ham oʻziga xosligi bilan ajralib turadi. Akbarshoh tomonidan olib borilgan diniy bagʻrikenglik siyosati (sulh-i kul — “umumiy murosa”) imperiya hududida yashagan turli diniy va etnik guruhlar oʻrtasida nisbiy totuvlikni taʼminladi. Ushbu siyosat davlat boshqaruvida musulmonlar bilan bir qatorda hindu, jayn va boshqa din vakillarining ham faol ishtirok etishiga imkon yaratdi. Ingliz tarixchisi Satish Chandra bu siyosatni “Boburiylar imperiyasining siyosiy barqarorligini taʼminlagan asosiy omil” sifatida baholaydi [5].

Imperiyaning markaz va viloyatlar oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga solish tizimi ham oʻziga xos boʻlib u suba (viloyat) deb atalgan. Ushbu tizim orqali hududiy boshqaruv amalga oshirilib, markaziy hokimiyat manfaatlarini bilan mahalliy ehtiyojlar oʻrtasida muvozanat saqlanishiga erishilgan. Bu tizim Boburiylar imperiyasida byurokratik boshqaruvning shakllanishiga xizmat qildi hamda keyinchalik Britaniya mustamlaka boshqaruvi uchun ham maʼlum darajada model vazifasini bajardi [6]. Umuman olganda, Boburiylar imperiyasining siyosiy merosi Hindiston tarixida markazlashgan davlat boshqaruvi, diniy bagʻrikenglik va maʼmuriy samaradorlikning muvaffaqiyatli namunasi sifatida namoyon boʻladi. Boburiylar tomonidan yaratilgan siyosiy model Sharq davlatchilik anʼanalarining Janubiy Osiyo sharoitida muvaffaqiyatli moslashtirilganligini yaqqol koʻrsatadi.

Boburiylar imperiyasi nafaqat siyosiy barqarorlikni taʼminlagan davlat tuzilmasi, balki Sharq va Janubiy Osiyo sivilizatsiyalarining madaniy integratsiyasiga kuchli turtki bergan tarixiy hodisa sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Boburiylar davrida Markaziy Osiyo, Eron va Hind sivilizatsiyalari oʻrtasida yuz bergan madaniy sintez natijasida yangi badiiy, meʼmoriy va intellektual makon shakllandi. Ushbu jarayon esa Boburiylar merosining sivilizatsion mohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Misol uchun, Boburiylar davrida meʼmorchilik sanʼati yuksak taraqqiyot bosqichiga koʻtarildi. Temuriylar meʼmorchiligiga xos monumental tuzilish, simmetriya va bogʻ-inshoot konsepsiyasi Hind anʼanalari bilan uygʻunlashib, oʻziga xos Boburiylar meʼmoriy uslubini vujudga keltirdi. Shoh Jahon davrida barpo etilgan Toj Mahal majmuasi ushbu sintezning eng yuksak namunasi sifatida eʼtirof etiladi. Arxitektura tarixchisi S.B. Asher Toj Mahalni “islomiy Markaziy Osiyo anʼanalari va hind estetik qarashlarining mukammal uygʻunlashuvi” deb baholaydi [7].

Boburiylar merosining madaniy ahamiyati adabiyot va tarixnavislik sohalarida ham yaqqol namoyon boʻladi. Boburiylar saroyida fors tili rasmiy va adabiy til sifatida etakchi mavqega ega boʻlgan boʻlsa-da, turkiy til anʼanalari ham saqlanib qoldi. Yuqorida taʼkidlanganidek, “Boburnoma” asari turkiy tilning ilmiy-adabiy salohiyatini namoyish etgan noyob manba boʻlib, keyingi davr tarixshunosligi uchun mustahkam poydevor vazifasini oʻtadi. Akademik V.V. Bartold bu holatni “turkiy tarixiy xotiraning Hindiston hududida davom etishi” sifatida baholagan [4]. Tasviriy sanʼat sohasida Boburiylar miniatyura maktabi shakllandi. Bu maktabda Eron miniatyura anʼanalari hind rangtasviri unsurlari bilan uygʻunlashib, realizmga yaqinlashgan yangi badiiy yoʻnalishni vujudga keltirdi. Jahongir va Shoh Jahon davrida rivoj topgan bu sanʼat turi nafaqat estetik, balki tarixiy hujjatli ahamiyatga ham ega boʻldi. Umuman olganda, Boburiylar merosi Sharq va Janubiy Osiyo oʻrtasida sivilizatsiyalararo koʻprik vazifasini bajargan noyob tarixiy hodisadir. Ushbu meros orqali ilm-fan, sanʼat va madaniyat sohalarida yuz bergan oʻzaro taʼsir jarayonlari nafaqat oʻz davri uchun, balki keyingi asrlar taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etdi. Boburiylar davrida shakllangan madaniy sintez bugungi globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqotni oʻrganishda muhim tarixiy tajriba sifatida eʼtirof etiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur va u asos solgan Boburiylar imperiyasi jahon tarixida siyosiy, madaniy hamda sivilizatsion ahamiyatga ega boʻlgan noyob tarixiy hodisa sifatida namoyon boʻladi. Bobur shaxsida temuriylar davlatchilik anʼanalari,

harbiy strategiya va yuksak intellektual salohiyat uyg'unlashgan bo'lib, bu holat uning Hindiston hududida yangi imperiya barpo etishiga mustahkam zamin yaratdi. Boburning davlat boshqaruvi, adolat va tartibga asoslangan siyosiy qarashlari keyingi Boburiy hukmdorlar faoliyati uchun konseptual asos vazifasini bajardi. Boburiylar imperiyasining siyosiy merosi markazlashgan boshqaruv tizimi, samarali ma'muriy apparat va diniy bag'rikenglik siyosati bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, Akbarshoh davrida amalga oshirilgan islohotlar imperiyaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlab, ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatni boshqarishning muvaffaqiyatli tarixiy modelini yaratdi.

Boburiylar merosining madaniy va sivilizatsion ahamiyati esa me'morchilik, adabiyot, tasviriy san'at va ilm-fan sohalarida yuzaga kelgan madaniy sintez orqali namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyo, Eron va Hind an'analarining uyg'unlashuvi natijasida shakllangan Boburiylar madaniy muhiti sivilizatsiyalararo muloqotning tarixiy namunasi sifatida baholanishi mumkin. Ushbu meros nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi globallashuv sharoitida madaniyatlararo integratsiyani anglash uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasi qoldirgan merosni ilmiy asosda o'rganish Markaziy va Janubiy Osiyo tarixiy jarayonlarini chuqurroq anglash, shuningdek, davlatchilik, madaniyat va sivilizatsiyalararo aloqalar masalalarini tahlil qilish uchun muhim nazariy va amaliy imkoniyatlar yaratadi. Boburiylar tajribasi bugungi zamonaviy jamiyatlar uchun ham tarixiy saboq va ilmiy tahlil obyekti bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Richards J.F. The Mughal Empire. Cambridge: Cambridge University Press, 1993, p. 34–36.
2. Smith V.A. Akbar the Great Mogul. Oxford: Oxford University Press, 1917, p. 12.
3. Bobur Z.M. "Boburnoma". Toshkent: Fan, 1989, 118-bet.
4. Бартольд В.В. Сочинения. Т. II. Москва: Наука, 1964. 247-bet.
5. Chandra S. *Medieval India: From Sultanat to the Mughals*. New Delhi: Har-Anand Publications, 2005, p. 186.
6. Stein B. A History of India. Oxford: Wiley-Blackwell, 2010, p. 164–166.
7. Asher S.B. *Architecture of Mughal India*. Cambridge University Press, 1992.
8. Bobur Z.M. "Boburnoma. Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960, 14-bet.